

Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna

Samarqand iqtisodiyot va servis institute “Buxgalteriya hisobi” kafedrasida katta o‘qituvchisi
+998937284308,

e-mail: dilnozaxudaynazarova17@gmail.com

Moliya va moliyaviy texnologiyalar fakulteti MK 324-guruh talabasi

Obloqulova Marjona

Annotatsiya. Ushbu maqolada xo‘jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirishning asosiy tamoyillaridan biri — ikkiyoqlama yozuv usuli tahlil qilinadi. Ikkiyoqlama yozuvning mazmuni, mohiyati va amaliy ahamiyati yoritilib, uning buxgalteriya balansidagi o‘rni tushuntiriladi. Maqolada shuningdek, xo‘jalik operatsiyalarini ikkiyoqlama yozuv asosida to‘g‘ri qayd etish korxonaning moliyaviy nazoratini kuchaytirishi, hisobotlarning ishonchliligini oshirishi va tahliliy hisobni yuritishda muhim rol o‘ynashi ko‘rsatib o‘tilgan. Keltirilgan misollar orqali ikkiyoqlama yozuvning amaliy qo‘llanilishi yoritilib, uning afzalliklari aniq va tushunarli qilib asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: buxgalteriya hisobi, ikkiyoqlama yozuv, debet, kredit, balans, xo‘jalik operatsiyasi, moliyaviy nazorat.

Аннотация. В данной статье анализируется один из основных принципов бухгалтерского учета хозяйственных операций – метод двойной записи. Раскрываются содержание, сущность и практическое значение двойной записи, а также объясняется ее место в бухгалтерском балансе. В статье также показано, что правильное отражение хозяйственных операций на основе двойной записи усиливает финансовый контроль предприятия, повышает достоверность отчетности и играет важную роль в ведении аналитического учета. Приведенные примеры иллюстрируют практическое применение двойной записи, наглядно и наглядно обосновываются ее преимущества.

Ключевые слова: бухгалтерский учет, двойная запись, дебет, кредит, бухгалтерский баланс, хозяйственная операция, финансовый контроль.

Abstract. This article analyzes one of the main principles of accounting for business transactions - the double-entry bookkeeping method. The content, essence and practical significance of double-entry bookkeeping are highlighted, and its place in the balance sheet is explained. The article also shows that the correct recording of business transactions on the basis of double-entry bookkeeping strengthens the financial control of the enterprise, increases the reliability of reports and plays an important role in conducting analytical accounting. The examples given illustrate the practical application of double-entry bookkeeping, and its advantages are clearly and clearly substantiated.

Keywords: accounting, double-entry bookkeeping, debit, credit, balance sheet, business transaction, financial control.

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini ishonchli va to‘liq aks ettirish, ularning xo‘jalik faoliyatini samarali boshqarish va nazorat qilish zamonaviy buxgalteriya hisobining asosiy vazifalaridan biridir. Buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lgan ikkiyoqlama yozuv prinsipi aynan ushbu vazifalarni amalda samarali amalga oshirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ikkiyoqlama yozuv – bu har qanday xo‘jalik operatsiyasi

buxgalteriya hisobida bir vaqtning o'zida kamida ikkita hisobvaraqa, ya'ni debet va kredit taraflarga yozilishi orqali aks ettirilishini nazarda tutuvchi usuldir. Bu usul orqali xo'jalik operatsiyalarining iqtisodiy mazmuni to'liq yoritiladi va harakatlanayotgan resurslarning manbalari hamda foydalanish yo'nalishlari o'zaro muvofiqlikda ko'rsatiladi.

Xo'jalik operatsiyalari turli iqtisodiy munosabatlarning ifodasi bo'lib, ularning to'g'ri va tizimli tarzda aks ettirilishi moliyaviy natijalarni ishonchli shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, iqtisodiyotni raqamlashtirish, xalqaro buxgalteriya standartlariga moslashish va tashqi auditorlik talablarining kuchayib borayotgan davrida ikkiyoqlama yozuvning zamonaviy talablarga mos holda takomillashtirilgan yondashuvlarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada xo'jalik operatsiyalarini ikkiyoqlama yozuv prinsipi asosida aks ettirishning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilishga, mavjud muammolarni aniqlashga hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Shuningdek, ikkiyoqlama yozuvning turli xo'jalik operatsiyalariga qo'llanish xususiyatlari, ularning iqtisodiy mazmunini to'g'ri aks ettirishdagi o'rni ham ushbu ishda o'rganiladi.

Buxgalteriya hisobi - har qanday mulkchilik shaklidagi korxonada xo'jalik faoliyatini yalpi, uzluksiz kuzatish va nazorat qilish, sodir bo'lgan voqea-hodisalarni hisob registrlarida qayd qilish, ularga ishlov berish hamda hujjatlarga asoslangan holda moliyaviy hisobot ko'rinishida axborotlarni foydalanuvchilarga taqdim qilish tizimidir.

Xo'jalik operatsiyalari — bu korxonaning xo'jalik faoliyati jarayonida uning mablag'lari, majburiyatlari yoki kapitalida o'zgarish keltirib chiqaruvchi iqtisodiy hodisalardir. Boshqacha qilib aytganda, xo'jalik operatsiyasi — bu korxonada aktivlari (mablag'lari) va ularning manbalari (majburiyatlar hamda kapital) tarkibida yoki miqdorida sodir bo'ladigan har qanday o'zgarishdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi subyektning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi aniq, to'liq va ishonchli buxgalteriya hisobiga bog'liqdir. Xo'jalik operatsiyalarini to'g'ri aks ettirishda ikkiyoqlama yozuv usuli muhim ahamiyatga ega bo'lib, u buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillaridan biridir. Bu usul orqali korxonada mablag'larining kelib chiqishi va ularning joylashuvi to'liq nazorat qilinadi.

Ikki yoqlama yozuv — bu har bir xo'jalik operatsiyasini bir vaqtning o'zida ikki schyotda, ya'ni debet va kredit tomonlarda aks ettirish usulidir. Bunda har bir operatsiya mablag'larning bir turdan ikkinchi turga o'tishini yoki manbadan foydalanilishini ko'rsatadi. Yoki boshqacha qilib aytganda bir schotning debitida ikkinchi bir schotning kreditida bir xil muddatda bir xil summaning ifodalanishiga aytiladi.

Masalan, korxonada tovar sotib olsa, bu operatsiya bir tomondan tovar-moddiy zaxiralarning ortishi ya'ni debet, boshqa tomondan esa naqd pul yoki hisobvaraqdagi mablag'larning kamayishi ya'ni kredit tarzida yoziladi. Natijada har bir yozuv muvozanatni saqlaydi, chunki jami debet summasi har doim jami kredit summasiga teng bo'lishi shart hisoblanadi.

Ikki yoqlama yozuv buxgalteriya hisobida quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Hisobotning aniqliligini ta'minlaydi. Har bir xo'jalik operatsiyasi ikki tomonlama aks etgani sababli, xatoliklarni aniqlash osonlashadi.
2. Moliyaviy nazoratni kuchaytiradi. Mablag'larning harakati, ularning manbalari va yo'nalishlari doimiy nazorat ostida bo'ladi.
3. Tahliliy va sintetik hisobni uyg'unlashtiradi. Ikkiyoqlama yozuv tahliliy (detallashtirilgan) va sintetik (umumiy) hisobotlarning mosligini ta'minlaydi.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-10

4. Balansning muvozanatini saqlaydi. Har bir xo'jalik operatsiyasi aktiv va passivlarning bir vaqtning o'zida o'zgarishiga olib keladi.

Ikkiyoqlama yozuv buxgalteriya balansining tenglamasiga asoslanadi:

Aktivlar = Majburiyatlar + Kapital

Har bir xo'jalik operatsiyasi shu tenglamaning kamida ikkita elementi o'rtasida o'zgarish keltirib chiqaradi. Shu sababli, yozuvlar quyidagi turdagi o'zgarishlarni ifodalanadi:

Aktivlar bir-biriga o'tadi (masalan, naqd pul evaziga tovar sotib olish);

Aktiv va majburiyat bir vaqtning o'zida ortadi (masalan, qarzga tovar olish);

Aktiv va majburiyat bir vaqtning o'zida kamayadi (qarzni to'lash);

Aktiv kamayib, kapital o'zgaradi (dividend to'lash yoki zarar ko'rish).

Misol sifatida shuni ko'rib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi :

Agar korxonada 10 million so'mlik tovarni naqd pul evaziga sotib olsa, bu operatsiya quyidagicha yoziladi:

Schyot nomi Debet Kredit

Tovar-moddiy zaxiralar 10 000 000

Naqd pul (kassa) 10 000 000

Bu yerda tovar zaxirasi ortgani uchun u debet qilinadi, naqd pul kamaygani uchun esa kredit qilinadi.

Ikkiyoqlama yozuvning afzalliklari shulardan iborat hisoblanadi:

Har bir operatsiya to'liq va tizimli qayd etiladi;

Buxgalteriya balansining aniqligini ta'minlaydi;

Moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni yengillashtiradi;

Tahlil, audit va nazorat uchun ishonchli manba yaratadi.

Ikkiyoqlama yozuv quyidagicha tariflasak ham mubolag'a bo'lmaydi :

Xo'jalik muomalalarini schyotlarda ikkiyoqlama aks ettirishda qiymat miqdori o'zgarmaganligi sababli o'zaro bog'lanadigan schyotlarning debet va kreditiga tegishli summalar bir-biriga teng bo'ladi. Masalan, asosiy ishlab chiqarishga material sarflanishi natijasida ombordagi materiallar kamayadi va asosiy ishlab chiqarish xarajatlari ko'payadi. Bu xo'jalik muomalasi hisobining ikki obyektida aks etayotgani uchun u ikkita, ya'ni «Xomashyo va materiallar» schyoti va «Asosiy ishlab chiqarish» schyotiga yozilishi kerak.

Misol: Xo'jalik paxta yetishtirish uchun 12000 so'mlik mineral o'g'it sarflandi. Bu xo'jalik muomalasi natijasida «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti 12000 so'mga ko'payadi. Aktiv schyotlarning ko'payishi debet tomonida ko'rsatilishi sababli bu summa «Asosiy ishlab chiqarish» schyotining debet tomoniga yoziladi.

«Xomashyo va materiallar» schyotida hisobga olingan mineral o'g'itlar miqdori kamayadi. Ma'lumki, aktiv schyotlar bo'yicha kamayish kredit tomonida ko'rsatiladi. Shuning uchun ushbu muomala summasi «Xomashyo va materiallar» schyotining kreditiga yoziladi. Mazkur muomala schyotlarda quyidagicha aks ettiriladi:

Debet «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti – 12000 so'm.

Kredit «Xomashyo va materiallar» schyoti – 12000 so'm.

Yuqoridagi muomalani schyotlarga quyidagicha yozamiz:

«Xomashyo va materiallar» schyoti «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti

Dt

Kt

Dt

Kt

Saldo	1)21000	← →	Saldo	1)21000

Yuqoridagi misoldan ko‘rinib turibdiki, sodir bo‘lgan xo‘jalik muomalasini schyotlarda ikki yoqlama aks ettirganimizda summalar tengligi o‘zgarmagan. Bu tenglik xo‘jalik muomalalarini schyotlarga yozishning to‘g‘riligini nazorat qilishni ta‘minlaydi. Ushbu tengliklar qonuniyatining matematik modellari bilan ifodalash mumkin: barcha aktiv va passiv sintetik schyotlar bo‘yicha boshlang‘ich qoldiqlar (saldo) summasining tengligi; barcha aktiv va passiv sintetik schyotlar bo‘yicha debet va kredit oborotlarining tengligi; barcha aktiv va passiv sintetik schyotlar bo‘yicha oxirgi qoldiqlar (saldo) summasining tengligi.

Agar sintetik schyotlarning boshlang‘ich debet qoldiqlari (saldo) S^d deb, sintetik schyotlarning boshlang‘ich kredit qoldiqlari (saldo) S^k deb belgilansa, ularning tengligi quyidagi matematik model ko‘rinishida bo‘ladi:

$$\sum S^{d_0} = \sum S^{k_0} \dots (1)$$

Ushbu model barcha sintetik schyotlarning ma‘lum sanaga bo‘lgan boshlang‘ich debet qoldiqlarining summasi passiv sintetik schyotlarning shu sanaga bo‘lgan boshlang‘ich kredit qoldiqlari (saldo) summasiga teng deb o‘qiladi.

Barcha sintetik schyotlar bo‘yicha debet va kredit oborotlari tengligi qonuniyatining matematik modeli quyidagicha bo‘ladi:

$$\sum DO_0 = \sum KO_0 \dots (2)$$

Bu yerda:

DO_0 – sintetik schyotlarning ma‘lum davr ichidagi debet oboroti;

KO_0 – sintetik schyotlarning ma‘lum davr ichidagi kredit oboroti.

Ushbu model ma‘lum davr ichida barcha sintetik schyotlar debet oborotlarining summasi, shu davr ichidagi kredit oborotlarining summasiga teng deb o‘qiladi.

Ikkiyoqlama yozuvning nazorat qilish xususiyatlari.

Har bir xo‘jalik operatsiyasi mablag‘ning tuzilishida yoki manbaning tuzilishida yoki bir vaqtning o‘zida ham mablag‘da, ham manbada bir xil summaga o‘zgarishiga olib keladi.

Bunday o‘zgarishlarni qayd qilish uchun buxgalteriya hisobida ikkiyoqlama yozuv usuli qo‘llaniladi.

Ikki yoqlama yozuv shunday yozuvki, uning natijasida har bir xo‘jalik operatsiyasining summasi schyotlarda ikki marotaba: bir schyot debetida va ayni vaqtda o‘zaro bog‘langan boshqa schyotning kreditida qayd qilinadi.

Chunki xo‘jalik operatsiyalari yuzaga keltiradigan o‘zgarishlar ikkiyoqlama xususiyatga ega va hisobotning ikki tomoniga ta‘sir etadi.

1494 yilda italiyalik matematika olimi Luka Pacioli ikkiyoqlama yozuvni yaratgan. Uning schyotlar va yozuvlar to‘g‘risidagi “Traktatda” (lot. tractatus – muhokama) yozilishicha, bir vaqtning o‘zida har doim va ega bo‘lmoq schyotlarda aks ettiriladigan summalarning yig‘indisi o‘zaro teng kelishi kerak deb ta‘kidlagan.

Ikkiyoqlama yozuv voqialashtirilganda schyotlar o‘rtasidagi paydo bo‘lgan o‘zaro aloqani schyotlar korrespondensiyasi deyiladi.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-10

Bu korrespondensiyada qatnashuvchi schyotlar korrespondent schyotlar deb ataladi. Schyotlar korrespondensiyasini aks ettiruvchi qisqacha yozuv buxgalteriya provodkasi (o'tkazmasi) deyiladi. Buxgalteriya provodkalari oddiy va murakkab bo'ladi.

Oddiy buxgalteriya provodkasi (o'tkazmasi) deb, ma'lum bir xo'jalik operatsiyasining faqat bir schyotning debeti va boshqa bir schyotning kreditida aks ettirilishiga aytiladi. Murakkab buxgalteriya provodkasi (o'tkazmasi) ma'lum bir operatsiyaning summasi bir schyotning debeti, boshqa bir qancha schyotlarning kreditida yoki aksincha, bir schyotning krediti va bir necha schyotlarning debetida aks ettirilishidir.

Xo'jalik operatsiyalarini schyotlarda ikkiyoqlama yozuv usuli bilan aks ettirish tartibini quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin.

1-misol.

Bankdagi hisob-kitob schyotidan kassaga 1 500 000 so'm naqd pul olib kelindi.

Ushbu xo'jalik operatsiyasi natijasida bankdagi hisob-kitob schyotida pul mablag'i kamaydi, kassada esa shu summaga ko'paydi.

Bu schyotlarning ikkalasi ham aktiv schyotlardir.

Debet		Kredit
	5010 (A)	

(+)	1 500 000 so'mga kassada pul mablag'ining ko'payishi
-----	--

Debit	5110 (A)	Kredit
--------------	----------	---------------

q.1 500 000

(-) 1 500 000 so'mga hisob-kitob schyotidagi pul mablag'ining kamayishi

1-misoldagi muomala aks ettirilishining ko'rinishi quyidagicha ifodalanadi .

1-misol. Kassadan xodimlarga 1 500 000 so'm ish haqi berildi.

Ushbu xo'jalik operatsiyasi natijasida kassadagi pul mablag'i kamaydi, xodimlar bilan ish haqi yuzasidan qarzlarni ham kamaydi.

Debet		Kredit
	6710 (P)	

(-)	1 500 000 so'mga xodimlarga ish haqi yuzasidan qarzlarning kamayishi
-----	--

Debit	5010 (A)	Kredit
--------------	----------	---------------

(=) 1 500 000 so'mga kassadagi pul mablag'ining kamayishi

2-misoldagi muomala aks ettirilishining ko'rinishi

1-misol. Ombordan asosiy ishlab chiqarishga 1 400 000 so'mlik va umum ishlab chiqarishga 170000 so'mlik yoqilg'I moylash materiallari bberildi ushbu xo'jalik operatsiyasi natijasida ombordagi yoqilg'I moylash materiallari kamayadi , asosiy ishlab chiqarish va umum ishlab chiqarishlarda yoqilg'I moylash materiallari ko'payadi .

Debit		Kredit
	2010(A)	

(+)1 400 000so'mga asosiy ishlab chiqarish xarajatlar ko'payishi		
Debit	2510(A)	Kredit
(+)170 000 so'mga umuishlab chiqarish xarajatlar ko'payishi		
Debit	1030(A)	Kredit
q.1 570 000 so'm		(-)1 570 000so'mga yoqilg'i moylash materiallari kamayishi

Buxgalteriya hisobida ikki yoqlama yozuv usulidan schyotlarda xo'jalik operatsiyalari to'g'ri aks ettirilishi ustidan nazorat olib boriishda foydalaniladi .Har bir operatsiya bir xil summaga bitta schyotning debeti va boshqa bir schyotning kreditga yoziladi . Natijada hamma schyotlarning debet tomonidagi oborotlar jam , hamma schyotlarning kredit tomonidagi oborotlar jamiga teng bo'lishi kerak .

Xulosa qilib aytganda, ikkiyoqlama yozuv buxgalteriya hisobining yuragi hisoblanadi. Uning yordamida korxonada faoliyatidagi barcha moliyaviy jarayonlar tizimli tarzda qayd etiladi va nazorat qilinadi. Shu sababli, ikkiyoqlama yozuv usulini mukammal o'zlashtirish har bir buxgalter va iqtisodchi uchun zaruriy ko'nikmadir. U korxonada moliyaviy barqarorligini ta'minlashda va to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Buxgalteriya hisobi nazariyasi -Toshkent-2020
2. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi Qonuni. – Toshkent: “Adolat” nashriyoti, 2016.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4611-son qarori – “Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2019-yil 24-fevral.
4. Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS). – Toshkent: Moliya vazirligi nashri, 2020.
5. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS 9 – Financial Instruments). – London: IFRS Foundation, 2022.
6. Karimov, A. A. “Buxgalteriya hisobi nazariyasi.” – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2019.
7. Abdurahmonov, Q. X. “Moliyaviy hisob.” – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2021.
8. Shukurov, M. R. “Buxgalteriya hisobi va audit asoslari.” – Toshkent: “Iqtisod-moliya” nashriyoti, 2020.
9. Xolboev, R. A. “Korxonalarda buxgalteriya hisobi.” – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2022.
10. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy veb-sayti: www.mf.uz (<https://www.mf.uz/>)
11. IFRS Foundation rasmiy veb-sayti: www.ifrs.org (<https://www.ifrs.org/>)